

LIRIK OBRAZ TASVIRIDA PEYZAJ VA PORTRETNING O'RNI (Abdulla Sher va Eshqobil Shukur she'rlari misolida)

Yo'lchiyev Qahhor Vahobovich,
filologiya fanlari doktori, Farg'ona davlat universiteti

Annotatsiya. Maqolada badiiy tasviriy vositalar, xususan, peyzaj va portret yordamida badiiylik yaratish haqidagi ilmiy-tahliliy fikrlar ilgari surilgan. Kirish qismida har bir shoir o'z ijodiy niyatini amalga oshirishda tabiat taviri va kishilar qiyofasiga saylab murojaat qiladi. Nima shunday ekanligi esa konkret asar tahlilida namoyon bo'lishi, maqolda mavzusining dolzarbligini belgilashi aytilgan. Adabiyotlar ro'yxati va metodologiya qismida esa Gegel, N.D.Tamarchenko, D. H. Quronov kabi olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari tahlil etilgan va aniq metodologik yo'nalish belgilab olingan. Natijalar va muhokamalar qismida esa Abdulla Sher va Eshqobil Shukur she'rlaridagi peyzaj va portret usulining mohiyati ochib berilgan. Maqolada so'ngida ikki banddan iborat xulosa ajratib ko'rsatilgan.

Kalit so'z va iboralar: peyzaj, portret, obraz, detal, makon, lirik voqelik, lirik subyekt, lirik kompozitsiya.

THE ROLE OF LANDSCAPE AND PORTRAIT IN THE PICTURE OF A LYRICAL IMAGE

(As an example of poems by Abdulla Sher and Eshqabil Shukur)

Yulchiyev Qahhor Vahobovich,
Doctor science in filology, Ferghana State University

Annotation. The article presents scientific-analytical ideas about creating art with the help of artistic pictorial means, in particular, landscape and portrait. In the introduction, each poet selectively refers to the image of nature and people in the realization of his creative intention. It is said that what it is shown in the analysis of a concrete work, and determines the relevance of the theme of the proverb. In the list of references and the methodology section, the scientific and theoretical views of scientists such as Hegel, N. D.Tamarchenko, D. H. Kuronov are analyzed and a clear methodological direction is determined. In the results and discussion part, the essence of the landscape and portrait method in the poems of Abdulla Sher and Eshqabil Shukur is revealed. The article concludes with a two-paragraph conclusion.

Key words and phrases: landscape, portrait, image, detail, space, lyrical reality, lyrical subject, lyrical composition.

МЕСТО ПЕЙЗАЖА И ПОРТРЕТА В ОПИСАНИЕ ЛИРИЧЕСКОГО ОБРАЗА

(на примере стихотворение Абдулла Шера и Эшкабул Шукура)

Юлчиев Каххор Вахобович,
доктор филологических наук, Ферганский государственный университет

Аннотация. В статье представлены научно-аналитические представления о создании искусства с использованием художественных изобразительных средств, в частности, пейзажа и портрета. Во введении обосновывается актуальности то, что каждый поэт избирательно обращается к образу природы и людей в реализации своего творческого замысла, проявляется при анализе конкретного произведения и определяет актуальность темы. В разделе анализ литературы и

методологии анализируются научно-теоретические взгляды таких ученых, как Гегель, Н. Д. Тамарченко, Д. Х. Куронов, и определяется четкое методологическое направление. В разделе результаты и обсуждения раскрывается природа пейзажно-портретного стиля в стихотворениях Абдуллы Шера и Эшкabila Шукура. Статья завершается выводом из двух пунктов.

Ключевые слова и фраз: пейзаж, портрет, образ, деталь, пространства, лирический явления, лирический субъект, лирическая композиция.

Kirish. Ma'lumki, lirik she'riyatda peyzaj, portret lirik sub'ektning badiiy voqelikka bo'lgan munosabatini ifodalashda, uning ruhiyatini ochishda muhim vazifa bajaradi. SHoir peyzaj yoki portret yordamida o'zi tasvirlayotgan obraz ichki olamini, o'y-fikrlarini, xarakterini, ruhiyatini ochib beradi. Portret lirik obrazning tashqi qiyofasini ham yoritadi. SHu tariqa badiiy voqelikning yangi tarkibi, obraz ichki yoki tashqi faoliyatidan iborat bo'lgan lirik kechinma, o'y-fikrlar, voqea-hodisalar obrazi yuzaga keladi. Zero, peyzaj "SHe'ning g'oyaviy yo'nalishini oydinlashtiradi. Ayniqsa, shoir peyzajni mayda tafsilotlari bilan tasvirlar ekan, uning nigohi spiralsimon harakatda bo'ladi. Bu harakat olamning abadiiy harakati belgisidek taassurot qoldiradi" [8, 28]. YA'ni peyzaj doimiy aylanma harakatda ko'tarilib boradi. Natijada peyzaj tarkibiga portret unsurlari ham singib ketadi. Bu adabiyotshunoslar oldiga lirik she'riyatda badiiy tasviriy vositalardan foydalanish darajasi, ular zimmasiga yuklangan vazifalarni talqin va tahlil qilish vazifasini qo'yadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Aslida lirik she'riyatda peyzaj va portret faol ishlatiladigan badiiy tasviriy vositalardan sanaladi. Bu haqda qator ilmiy adabiyotlarda fikrlar bildirilgan. Jumladan, buyuk nemis mutafakkiri Gegel badiiy ijod falsafasi haqidagi joriy tasavvurlar haqida fikr yuritayotib, quyidagi uchta muhim jihatni keltiradi: "1. Badiiy asar tabiat mahsuli emas, balki inson faoliyati bilan yaratiladi. 2. U inson uchun yaratilgan, uning tashqi borliqqa bo'lgan his-tuyg'ulariga qaratilgan va ko'p yoki oz miqdorda ba'zi hissiy muhitdan olinadi. 3. U ma'lum maqsadlarga ega" [1, 31]. Demak, har qanday badiiy asardagi tabiat tasviri ijodkor sub'ektiv olamida yaratiladi va u konkret lirik asarda aniq lirik sub'ektning borliqqa hissiy munosabatini ifodalaydi. SHu ma'noda lirikadagi peyzaj lirik she'riyatda ma'lum badiiy-estetik vazifani, aniq badiiy g'oyani aks ettiradi.

Rus olimlari esa peyzaj "tasvir predmeti, avvalo, badiiy makonning ma'lim fon bilan ajratiladigan shaklga solingan qismi (...). Portret esa intererdan keyin keladi... Peyzaj aynan makonning ma'lum qismini tasviri sifatida mazkur makonning yaxlitligi haqidagi xabar asosida berilishi mumkin" [8, 228]. Olimlar bu erda ta'kidlagan peyzaj makuonning bir qismi bo'lib, u ulkan makonning bir qismi, ammo undan aysro bo'lmasligi to'g'ri ta'kidlangan. Peyzajning aynan qismligi, ammo yaxlit makondan ajralmasligi shoir (umuman olganda barcha ijodkor)ga o'z ijodiy niyatini ifodalashgsha tashqi borliq detallariga saylab munosabat bo'ldish imkonini beradi.

O'zbek olimlari peyzajni lirik janr darajasiga alohida diqqat qilishgan: "Peyzaj lirikasi - tavsifiy lirikaning bir turi, lirik sub'ektning his-tuyg'u va kechinmalari tabiat tasviri orkali ifodalangan asarlar. Peyzaj lirikada tasvirlangan tabiat manzarasida lirik sub'ekt qalbi suratlanadi, lirik sub'ekt qalbidan o'tkazib berilgan manzara oniy kayfiyatning obraziga aylanadi" [5, 222]. To'g'ri, bu erda olimlar peyzaj lirikasi va uning lirik sub'ekt bilan munosabatga urg'u berishgan. Ammo quyidagi ta'rifda o'sha olimlar peyzajning sof terminologik mohiyatini uchishga harakat qilishgan. «Peyzaj (fr. paysage – joy, yurt) – adabiy asarda yaratiluvchi badiiy voqelikning muhim komponenti, voqealar kechuvchi ochiq makon (yopik makon - interer) tasviri. ... peyzaj nafakat tabiatni, balki u bilan birga

inson tomonidan yaratilgan narsalar tasvirini ham ko‘zda tutadi... Lirik asarlarda xam peyzaj kuproq detallar tarzida mavjud, biroq ular lirik syujetni rivojlantirish, asoslashga xizmat kiladi, lirik holat vaqti va makoni haqida tasavvur beradi, lirik sub’ekt ruhiyatidan o‘tkazib berilgani bois o‘sha kayfiyatning suratiga aylanadi yoki uni ifodalash uchun fon vazifasini o‘taydi” [5, 221-222].

Aslida “Portret 1) personajning so‘z vositasida tasvirlangan tashqi ko‘rinishi (qiyofasi, jussasi, kiyimi, yuz-ko‘z ifodalari, tana holati va harakatlari, qiliqlari), o‘quvchi tasavvurida jonlanadigan to‘laqonli inson obrazini yaratish va uning xarakterini ochish vositalaridan biri” hisoblanadi [5, 226-227]. SHu ma’noda portret ham peyzaj kabi lirik kompozitsiyaning tavsifiy shakli sifatida olinadi.

Natijalar va tahlillar. Manbalardan ma’lum bo‘lmoqdaki, peyzaj va portret badiiy obraz yaratishda muhim badiiy komponent sanaladi. Lekin ularga ifodalagan hamma narsani ham badiiy matnga olib kiravermaydi. Balki, o‘z ijodiy konsepsiyasini to‘la qolnli, badiiy mukammal darajada ochishga xizmat qiladigan peyzaj yoki portretni qo‘shadi. SHuning uchun garnchi tabiat tasviri yoki shaxs tashqi qiyofasiga oid she’rlar ko‘p bo‘lsa-da, ular bir-biridan farq qiladi. Masalan, Abdulla SHerning “Tongdagi o‘ylar”, “Sukunat”, “Bahor”, “YOz”, “Daraxt zo‘r edi...”, “Zamharir qish. Oy nurida qor...”, “YOmg‘ir yog‘ar, qiyalab yog‘ar...”, “Kuz”, “YOzni olib uchgan turnalar...”, “O‘zgacha gashti bor tungi ko‘chaning...” kabi qator she’lari bevosita peyzaj orqali lirik qahramon ichki olamni ifodalashga xizmat qiladi [9]. Sanalgan she’rlar ichida bevosita “Bahor” she’ri peyzaj lirikasi mansub she’r sanaladi.

Demak, “Bahor” nomli olti qismdan iborat she’rda tabiat tasviri vosita siftida lirik sub’ek botiniy olamidagi keinmani ifodalashga xizmat qilgan bo‘lishi mumkin. Buni bevosita she’r tahlilida ko‘rib chiqamiz:

Maysada osmonning ko‘k rangi,
Yo‘q osmon rangimas, yo‘q, aslo!
Inmishdir bahorning ko‘k rangi,
Na nafis nasofat fasli, o!
Ariqda jimjima sho‘x suvlar
Tollarni, egil, deb avraydi.
CHo‘miltib quyoshni xo‘p ular,
Ko‘p mamnun, osmonga qaraydi [9, 30].

SHerning birinchi qismi sifatida taqdim etilgan ushbu she’riy parchada “maysa”, “osmon”, “ko‘k rang”, “suv” “tol”, “quyosh” detallari lirik sub’ekt qalbiga jo‘shqinlik, kayfiyatiga ko‘tarinkilik bag‘ishlagan tabiatning muhim komponenti hisoblanadi. Ularga turli tasviriy vositalar, jumladan metafora (maysada osmonning ko‘k rangi) sifatlash (sho‘x) yoki o‘xshatish (cho‘miltirib, osmonga qaraydi) yordamida yaxlit kartina yaratgan. Unda suvlar obrazga aylanib, quyoshni cho‘miltiradi va bundan mumnun holda osmonga qarashadi. Aslida kunduzi ariqdagi quyosh aksi bo‘lishi tabiiy bo‘lib, shoir ana shu jarayonga ruhiy paralelizm yordamida ko‘tarinkilik pafosini bergan. Bunda suv, quyosh detallari metaforik asosda obrazga aylanib, suv farzandini cho‘miltirayotgan ayol, quyosh esa cho‘milgan bola sifatida ham olinishi mumkin. CHunki bola ham cho‘milib bo‘lgan ko‘chaga qarab oshgandek qush ham kenglikka – osmonga chiqqan, deya talqin etish mumkin. Tabiatdagi bu jarayonni shoir she’rga olib kirar ekan, peyzajni kuzatib, unga hayotsevarlik g‘oyasini singdirib, ko‘pchilik e’tibor qilmaydigan oddiy voqelikka yangi badiiy-estetik vazifa, ya’ni hayotni teran anglash, borliqni har bir zarrasigacha kuzatib, undan zavq olish lozimligini ko‘rsatmoqchi bo‘lganini namoyon etadi. Ko‘rinadiki, maysalarning yashillanishi, quyosh chiqishi, suvlar oqishi kabi peyzaj unsurlari lirik sub’ekt ruhiyatidagi go‘zallikni anglash, hayotni sevish g‘oyalarini to‘la

ifodalay olgan.

Abdulla SHerning yuqoridagi she'rida peyzaj funksiyalari bir nechta tashkil etadi. Ana shularda biri peyzaj va portret detallarining o'zaro uyg'un, yaxlit sistema sifatida qo'llanishi hisoblanadi. Buni she'ning ikkinchi qismida kuzatish mumkin:

Guldamas, hattoki toshlarda
Bahorning hidi bor – ilg'ab ol.
O'smaga cho'milgan qoshlarda
Sevgiga salom bor – tinlab qol.

Mazkur banddagi gul, tosh peyzaj detallari bo'lib, nafaqat gul, hattoki, biz bir qarashda anglamaydigan, sovuq va qattiq, hissiz toshda ham bahor kelganida o'zgarish bo'lishi, bahoriy ifor haqida so'z yuritiladi. Keyingi ikki misrada esa tosh ko'klamdan bahra olib yasharkan, odamchi u albatta yashnaydi. Keyigi misrada esa she'rga portret unsurlaridan bo'lgan qosh kiritiladi. Sinekdoxa usuli yordamida qosh orqali yor portreti berilgan. Qosh va unga surtilgan o'sma bunga esa hayotsevarlikni ifodasiga dalil, faqat uning ma'no-mohiyatini yanglash lozim, degan qarash bor. "O'sma qo'yilgan" jumlasida esa real qiz (yoki ayol)ning aniq yuz qiyofasini anglatadi. Demak, lirik tasvirlagan qahramon, hayotga tashna, qalbida mehr bor, go'zallikni his etadi. Mazkur she'rdagi manzara bilan portretning chizilishi lirik sub'ekt kechinmalaridagi harakat, lirik holatni yuzaga keltiruvchi omil vazifasida ham kelgan. Natijada peyzaj va portretning aralash qo'llanishi lirik syujetni tashkillovchi vazifasini ham bajargan deyishga asos bor. Birinchi qismdagi bandlarda kelirilgan peyzaj ushbu bandga kelganda lirik sub'ektning his-tuyg'ulariga turtki berib, ularning dinamikasini kuchaytirgan. Lekin she'rdagi ba'zi jihatlar, xususan, g'iybat (Yo'qolsin g'iybatlar bozori), yorning kelavermasligi, tortinishi, uyalishi (Dildorim, kel bugun yonimga) kabi jihatlar she'rni meditatif lirikaga yaqinlashtiradi. Demak peyzaj estetik munosabatni ifodalashdan tashqari, real hayotdagi voqea-hodisani lirik sub'ekt ichki olamidagi ko'tarinki kayfiyat, yaratilayotgan yangi olam bilan solishtirishni ham taqazo etadi. Natijada keyingi bandda yor to'ldiruvchi taqishi Navro'z yallasining baytiga, quyoshta'am dudoq esa yoz saratonining (issiq, qaynoq) taftiga o'xshatilgan. SHu erda she'rdagi lirik sub'ekt goh portret va peyzaj unsurlarini keltirib mashuqa obrazini chizadi.

Oppoq nur, oppoq nur, hur sahar...
Yuragim qonida quyosh bor ...
Quyosh-chi, shabnamni sipqarar,
Gullarning bargiga labi zor.
Oppoq nur, oppoq nur, hur sahar...
Yuragim qonida quyosh bor ...
Ko'zlarim nurlarini sipqarar,
Qo'shiqlar to'qiyman shu'lavor.

Beshinchi qismdan olingan ushbu she'riy quyosh detali obrazga aylanib, maysa, gul yoki yaprog'ida tomlanib turgan tomchi – shudringni sipqorishi uchun odam kabi gul yaprog'iga lab cho'zishi berilgan. Bu shu qadar go'zal va nozik tasvirki, Abdulla SHerning yuksak iste'dodi, olamni nozik tushinishi va nafosat bilan tasvirlashi ko'rinadi. Lekin shoir shu bilan cheklanmaydi, balki keyingi bandda esa o'zi ham quyoshdan nur-quvvat olib, tovlanuv turuvchi she'r yozishini faxr bilan e'tirof etadi. Demak, shu erda faxriya usuli ham qo'llangan, bu esa muallifning o'z badiiy-estetik darajasi yuksakligini to'g'ri baholashi sifatida olinishi kerak.

Lirik she'rdagi portret usuli shaxsning tashqi qiyofasiga chizgilarda namoyon bo'ladi. YOrning qoshi, ko'zi, yonog'i haqida ta'riflar bilan cheklanib, uning qiyofasi tasvirlanadi. Lekin lirikkada, umuman olganda badiiy adabiyotda portret personaj, lirik sub'ekt harakatini ham anglatadi. Bu esa lirik kompozitsiyada alohida o'ringa ega

bo'ladi. Masalan,

Bukchaygan qora uy qoshida
O'rmak to'qib o'tirar Dalvarzin momo,
Oyning o'rog'iga.
Kun oyog'iga

SHardoz boylar Dalvarzin momo [10, 258].

Eshqobil SHukurning "Dalvarzin momoning qilichi" nomli she'ridan olingan ushbu parchada momning aniq portreti berilgan. Uning o'rmak to'qib o'tirishi o'zbek momolarining aksariyati uchun tabiiy hol sanaladi. Lekin uning "bukchaygan qora uy qoshida" ekanligi o'quvchida momo portertiga doir ba'zi munosabatlarni shakllanishiga olib keladi. CHunki qora uy o'zbeklarning ko'chib, yurib yashagan davriga oid uy bo'lib, u o'tov ham deyiladi. Lekin bu erda u bukchaygan, ya'ni uy juda qadimgi ekanligiga ishora qiladi. Ikkinchi tomondan bukchayganlik, momoning tasviridagi keksalikka ham ishora qiladi. SHE'rda Momoning o'rmak to'qishi, qo'lidagi to'qish uchun ishlatadigan asbobi – yog'och qilichini tindirmasdan asrlar osha, yillar osha to'xtatmasligini ta'kidlaydi. SHu erda u xalq intilishning ramziga aylanadi, kishilarning orzu-umidlari so'nmaganiga ishora qiladi. SHE'r oxirida momoning qat'iyati namoyon bo'ladi:

Er ustida cheksiz uzanib yotar,
Qilichda to'qilgan rangin kamalak.
Bukchaygan qor uy qoshida
Kamalak to'qiydi Dalvarzin momo.

Dalvarzin momo er yuzini kamalakka to'ldirdi, kamalak esa rang-barang hayot, turmush farovonligi kabi ma'nolarni bildiradi. Momoning nomiga Dalvarzin degan nom olinishida Surxondaryodagi qadimgi tarixiy yodgorlikka ishora bor. YA'ni shunday buyuk shahar, saltanat qurgan el o'rmagini to'qiyveradi, dinlar, Buddalar, Zardushtlar kelib ketaveradi, ammo momo mangu shu erda qoladi, degan mazmun kelib chiqadi. Demak, shoir momo porterti orqali xalq tarixiy, millat taraqqiyotining boqiyiligini, kamalak misolida esa xalq kelajagi porloq bo'lishiga ishonchini tasvirlaydi.

"SHoir she'r matni doirasiga jalb etgan oddiq nuqtadan tortib murakkab poetik vositalargacha barchasi bir necha badiiy-estetik vazifalarni bajaradi. So'z... voqelikni etkazuvchi, muhokama qilish imkonini beruvchi, badiiyatini ifodalovchi, o'quvchiga assotsiatsiya beruvchi kabi vazifalarni bajaradi" [2, 88]. SHu ma'noda biz tahlil etayotgan shoirlar she'rlaridagi peyzaj yoki portret, avvalo, so'zsifatida olinadi, so'ngra uning vazifasi haqida fikr yuritish mumkin. Eshqobil SHukurning "Hayotga qasida" she'ri ham peyzaj orqali lirik sub'ektning hayotsevarlik g'oyasini ifodalashga xizmat qiladi. Masalan,

... lahzani ushlab qol,
yashab o't lahzani...
Qara, qanday moviy shamol yollari,
Qanday shirin uxlar momoqaldiroq.
Muzliklar kulgusi qanday otashin.

Qanday so'zanalar to'qiydi chaqmoq [10, 5].

Mazkur she'rning ko'p nuqta bilan boshlanib, ko'p nuqta bilan tugagan dastlabki ikki misrasi butun she'rda to'qqiz marta qaytarilib, u leytmotiv vazifasini bajaradi. YA'ni o'tayotgan vaqtning har onini anglab, ularda mangu qolishga yarasha ishlar qilish lozimligi ta'kidlangan. SHE'riy parchaning qolgan qismidagi peyzaj unsurlari bo'lgan shamol, momoqaldiroq, muzlik, chaqmoqlar turli badiiy tasviriy vosita, metafora (qanday moviy shamol yollari, uxlar momoqaldiroq, muzlik kulgusi, chaqmoq so'zana to'qishi) yordamida tabiat tasviriga qo'shimcha vazifalar yuklangan. Bunda

ular leksik ma'nosidan o'sib chiqib, yangi ma'no kasb etgan. To'g'ri, barcha vazifalar ham detallarning dastlabki ma'nosiga to'la mos kelmasligi mumkin. Chunki ma'no ko'chganda u yangi vazifalarni oladi va dastlabki ma'nosi safini kengaytiradi, ba'zan o'sha asl semantik qatlamdan chetga chiqishi, obrazga aylanishi ham tabiiy sanaladi. Masalan, shamol detaliga yollar qo'shib, uning rangi moviy ekanligini ta'kidlar ekan, shoir shamolning tezligi va kishi yuziga xuddi otning yolidek nimadir urilishi haqidagi tasavvurdan kelib chiqqan. Chunki asl voqelikda shamolning yoli bo'lmaydi. Lekin shoir shamolning yoli haqida so'z yuritib, uni aniq predmet, hodisa sifatida ko'rsatgan. Momoqaldiroqni ham biz faqat u ovoz chiqarganda sezamiz, ammo qolgan paytda uni sezmaymiz. Ana shu jarayonni shoir momoqaldiroq uxlashiga qiyoslagan.

Eshqobil SHukur she'rlarida yil fasllari – bahor, yoz, kuz, qish tasviri ko'p uchraydi. Peyzaj goh lirik sub'ektning ichki olami, goh esa vatan tasviri, goh qishloq tabiatiga chizgilar, gohida esa shoirlar vatani sifatida keladi. Xususan, "Boymoqlida bahor" she'rida vatan tasviri chiroyli tasirlarda beriladi [10, 20]:

Boymoqlida maysa nish urar,
Oqshom yo'lin changitar poda.
Daraxtlarda gullar gurkirar,
To'lqinlar tirilar daryoda.

Aslida, ko'klam kelishi bilan maysa barcha joyda nish uradi. Lekin lirik sub'ekt aynan Boymoqlini tilga olishdan uning o'z tug'ilgan yurtidan faxr hissini anglash mumkin. Qishloq ko'chalarini tasvirlar ekan, bu erliklarning chorva bilan ko'proq shug'ullanishiga e'tibor qiladi. Tog'dagi qor erib, daryoda suv ko'payishini metaforik asosda "To'lqinlar tirilar daryoda", deya ifodalaydi. Biz bundan to'lqinlar jonlanishi, daryoda suv ko'payishi bilamiz. Lekin to'lqinlar bahorda tirilishi, uning qachondir o'lganini, bahorda esa qaytadan jonlanishi zamirida tabiatning joy ato etish xususiyatiga ishora mavjud. Ana shu jon ato etishi qizg'aldoqlarning kelinlardek titrashi bilan semantik jihatdan bog'lanadi. So'ngra she'r oxiriga kelib, "Boymoqlida kelinlar tug'ar O'zbekiston shoirlarini" degan misra mazmunini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Eshqobil SHukur she'rlarining ko'pchiligida peyzaj lirik voqelikning boshlanmasi, personajlar ruhiyatini ochib beruvchi tasviriy detal sifatida ham keladi. Masalan, "YAngi yil she'ri"da buni ko'rish mumkin [10, 32]:

Don kabi sepildi sovuq tumanlar,
Oy qorlarni kiygan yo'llar chiroyli.
Uylarning ko'zlari – derazalarda
Ochilib-sochilgan gullar chiroyli.

Bir qarashda, she'riy parchadagi tuman va don mazmunan bir-biriga yaqin emasdek, don sepilishini esa tuman tushishiga o'xshatish g'alizdek tuyuladi. Ammo qirlik va adirlik oralariga qishda tushadigan tuman aynan don sepilganda ba'zi erga ko'p, ba'zi joyga umuman tushmaydi, on tushgan jon oqarib, jon tushmagan er esa asl rangida qoladi. SHoir tabiatning ana shunday noyob hodisani kuzatib, uni she'rga olib kiradi va tumanning bunday olataroq bo'lib tushishi personajlar ruhiyatidagi mahzunlik va quvnqlikka mos keladi. Aniqrog'i singil qalbi quvnoq. lekin Toshkentdan qishloqqa qaytgan lirik sub'ekt qalbidagi maxzunlikni keltiradi. Aytishkerakki, lirik sub'ekt buerda muallifning aynan o'zi, buni ikkinchi bandning oxirgi misrasida "Qorbobo emasman, Eshqobil, xolos" deya e'tirof etadi.

SHoir she'r lirik kompozitsiyasiga dialoglarni ham kiritgan natijada she'r lirik syujeti bo'rtib ko'rinadi:

– YAngi yilmoqda, aka, yangi yil!
YAgona bayram bu, g'amginsiz biroq?
– Meni onam kabi tushungin, singil,

Axir, o'tgan yilim o'ylatar ko'proq.

Ma'lumki, yil tugashida barcha o'tgan yilini sarhisob qiladi. Lirik sub'ekt ham goh shodlik, goh esa g'am bilan kechgan yilini eslab qalbi eziladi. Chunki avvallari, uning yili boshida, demakki, yangi marra, yutuqlari va katta ishlari oldida onasi va uning allasi yangrab turardi. Endi o'sha alla yo'q. Bu erda alla milliy qadriyat vazifasidan tashqari, kishiga kuch beruvchi, onalarning yorqin duosi, buyuk maqsadi sifatida kelgan. Onasini yo'qotgani bilan uning allasi, demakki, shu xalqning orzu havasi singillarda davom etmoqda buni shoir oxirgi bandda quyidagicha ifodalaydi:

Bu yil ham so'ng manzil qoshiga borgan,

Ne topib, nelerin yo'qotir ko'ngil.

Sendan akangga deb berib yuborgan

Onamning allasin yo'qotma, singil.

Bu erda lirik sub'ekt oilasi, xalqi qadriyati bo'lga alla timsolida o'z va xalqining kelajagini, intilishini ko'rmoqda. SHuning uchun singlisidan uni yo'qotmaslik, agar yo'qotsa u ham yo'qolishi mumkinligini ta'kidlaydi. SHu erda lirik sub'ekt qalbidagi hamginlik maqsadi ochilgandek bo'ladi, olataroq tuman tasviri aslida lirik sub'ekt qalbidagi ikkilanish, biroz g'amginlikka mos keladi va shu erda u aniq namoyon bo'ladi. Demak, peyzaj lirik qahramon orzusi, ideali bo'lgan muqaddas narsalarni ham anglatmoqda, deyish mumkin.

Ma'lumki, shoirlar "Lirik men tabiati deganda, shaxs ruhiyatiga daxldor bo'lgan adabiy portret emas, adabiy talqin ham emas, butun boshli ruhning sajiyasini tushunish lozim. An'ana va shakliy-uslubiy izlanishlar motivatsiyasi negizida turgan inson taqdiri hech qachon bir maromda saqlanib qolmaydi. Chunki u o'sha davr kayfiyatidagi ijobiy va salbiy o'zgarishlarni namoyon qilishi tayin" [6, 18]. SHuning uchun Eshqobul SHukurning boshqa bir she'rida lirik sub'ekt shaxs ruhiyati butun bo'lishi uchun, etuk odam bo'lishi uchun o'zi murojaat qilayotgan odamning xarakterini tanqid qiladi, uni buyuk ishlarga undash uchun zarur xususiyatlarni sanab o'tadi:

Maysaga qo'shilib titramoq uchun

Navoiy bo'lmog'ing shart emas.

G'aribga qo'shilib ingramoq uchun,

YAssaviy bo'lmog'ing shart emas.

Insonday... Insonday yashamoq uchun

Baqo bo'lmoqliging shart emas.

Bir bora Vatan deb yig'lamoq uchun

Daho bo'lmoqliging shart emas [10, 127].

Mazkur she'rida shoir portret yaratadi. Kinoya, piching usuli orqali ichki dunyosidagi alamni, do'stining ahvoligi achinish hissini ochib beradi. Insonga umr bir marta beriladi, shuning uchun uni matonat bilan. Mag'rurlik va fidoiylilik bilan yashab o'tish kerak. Kishi o'z oldiga shunday ulug', ammo oddiy maqsadlar qo'yish kerakki, bundan men Navoiydek bo'lolmayman, mendan YAssaviy chiqmaydi, deya intilmaslik, harakat qilmaslikka joy qolmasin, deydi. Chunki maysaning bahorda yoki erta tongdagi mayin titrog'ini anglash uchun o'sha titrog' mohiyatini bilish kifoya, buni faqat buyuk odam biladi, deyish xato bo'ladi. Chunki butun borliqdagi har zarradan tortib ulkan koinotgacha yagona tizimga ega mutloq mavjudlikning bir qismi. Har bir yaratilgan narsa-predmet, voqea-hodisalar ichki tartib bilan o'zaro bog'langan bo'ladi. Buni anglash uchun Najmiddin Kubrodek "katta olam va kichik olam" haqida risola yozish shart emas, balki olam mohiyatini bilish kifoya qilishi, buning uchun qo'rqmas bo'lishi, tafakkur qilishi, ilm olishi zarurligini ta'kidlagan. SHu tariqa, bir tomondan, lirik sub'ekt xakteri, uning vatanparvar, insonparvar ekanligini, ikki tomondan esa lirik sub'ekt murojaat qilayotgan odamning xarakter namoyon qilishi shartligini ochib

bergan. SHu yo'l bilan ikki kishining xarakteri qirralari, ruhiy portreti yaratilgan. "Bu kabi mazmunan oddiydan murakkabga, pastdan yuqoriga rivojlanib borgan tansiqusifat orqali ijodkor tasviriylikni orttirishga, o'quvchi tasavvurida davr qahramonining yoki davr voqealarining biror belgisini jonlantirishga, ayniqsa, qahramonning ruhiy holatini ochishga urinishi seziladi" [4, 104]. Professor Quvvatova ilgari surgan asosiy fikr shundan iboratki, tasvirdagi soddan murakkablikka qarab borish asarni tushunish va anglashda muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, qahramon ruhiyatini, xarakterini, demakki portretini yorqinroq aks ettiradi. Buni biz Abdulla SHerning quyidagi she'rida ham kuzatishimiz mumkin:

"Ey o'tkinchi, sochlari oppoq,
Qiyiq ko'zli, sodda amaki,
Bir zum qo'yko'z qardoshingga boq,
O'rab bergin menga tamaki" [10, 152].

Mazkur she'riy parchada Usmon Nosirning qo'lsiz-oyoqsiz majruh tani tasvirlanar ekan, unga yordam bergan, unga tamaki o'rab, gugurt chaqib tergan amakining portretini chizadi. Bunda u lirik qahramon nomidan so'zlaydi va bu ikki odam o'zaro ko'zlari o'xshashligiga ishora qiladi: biri qiyiq ko'z, biri qo'y ko'z. Amakining oppoq sochi, qiyiq ko'zli va sodda ekanligi lirik sub'ekt uni ruhiyatiga yaqin olishi va o'z dardini unga bayon qilishi orqali xarakteridagi qat'iyat, intiluvchanlikni ko'rsatadi:

O'rab bergin, chekay: majruh tan,
Tirsagi yo'q, qo'llarim uchun;
Tizzasi yo'q oyoqlar bilan,
YUrolmagan yo'llarim uchun.

"Dahshatli ertak" she'ridan olingan ushbu tasvirda Usmon Nosirning so'nggi portreti berilgan. U kurashchan, badiiy so'zni teran anglovchi, yurtini sevuvchi, g'animlarga bo'yin egmagani uchun qamashgani va dastlab Magadan, so'ngra Oltoy o'lkasiga surgun qilinganini bilamiz, ammo ushbu portretda uning irodasi, qat'iyati namoyon bo'lgan. U g'animler, g'alamislar ig'vosiga uchmadi, kulfat, og'riq va dushmaniga tik boqib qahramonlik ko'rsatgani tamaki so'rash lavhasi orqali ta'sirli ifodalangan.

SHoir portret orqali nafaqat lirik sub'ektning ayanchli qismatini, balki sotqinlarning yuzsiz qiyofasini, salbiy xarakterini ham ochib beradi, bu esa portret yoki peyzaj lirikada nafaqat nozik kechinma, inja his-tuyg'uni emas, balki nafrat, g'azabni ifodalashda ham muhim ahamiyatga egaligini ko'rsatadi:

Spitamen boshini tilla barkashda
Keltirib, iskandar sharobin totding.
Ming yilki, avlolar tinmas qarg'ishdan:
Sen vatanni sotding, xalqimni sotding
Nega kasbu koring topar-u, rivoj,
Nega sen o'lmayсан, Mahmud YAlavoch?! [9, 137]

Lirik sub'ektning qahrli g'azabiga yo'g'rilgan ushbu band avvalida Mahmud YAlavochning aniq tasviri beriladi va oxirida bunga nisbatan g'azab shakllanib, lirik sub'ekt barcha vatanparvarlar nomidan sotqinga ritorik so'roq bilan murojaat qilgan. SHoir shu tariqa, har bandda Mahmud YAlavochlar yo'q bo'lmayotgani, ularning xarakteri, illati yashayotganini ibn Qutaybaga Muqannani sotgan sotqin, CHingizga buyuk Xorazmni sotib oltinga yo'g'rilgan savdogarni, Nikolayga Buxoro, Samarqand, Qo'qon kalitlarini tortiq qilib, qo'lida Qur'on va xoch ushlagan "Mahmud YAlavoch"ning portretini chizadi.

Umuman olganda, badiiy tasviriy vosita sifatida tadqiq etgan peyzaj, portret usuli yoki bu ikkalasining aralash qo'llanishi shoirlarning badiiy maqsadidan kelib chiqqan. Natijada lirik she'r mazmuni umuminsoniylik, serqatlamlilik kasb etgan.

XULOSA

Abdulla SHer, Eshqobil SHukur kabi shoirlar obrazli ifoda, obraz yaratish, badiiy-estetik konsepsiyasini o'quvchiga etkazishda peyzaj va portret usullaridan keng foydalanishgan. Tabiat tasviri orqali lirik voqelikni yaratishda tabiatning o'zlari ifoda etayotgan maqsadga mos keladigan unsurlarini Abdulla SHer she'rlarida peyzajning gul, maysa, suv, nur, quyosh, chechak, tosh, osmon, tolpupuk, bahor, qor kabi unsurlaridan, Eshqobil SHukur she'rlarida chaqmoq, qor, don, tuman, tog', qir, suv, soy kabi unsurlarga ko'proq murojaat qilgan. Bu esa ular qo'llagan badiiy tasviriy vositalarning matndagi badiiy-estetik vazifalari turlicha ekanligi bilan izohlanadi.

Biz tahlil etgan she'rlar peyzaj bilan boshlanib, so'ngra portret tasviriga ko'chishi, yoki portret va peyzajning she'riy misralarda ketma-ket, aralash qo'llanishi, tez-tez o'rin almashib kelishi she'riy ifoda, lirik syujetga rang-baranglik bag'ishlagan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Georg Fridrix Vilgelm Gegel. Estetika. V 4-x tomax. Tom 1-y. – Moskva: Iskustvo, 1968. – 312 s.

Yo'lchiev Q. Poetik olam sirlari. – Toshkent: Akademya, 2012. – 96 b.

Keldiyorova N.N. Zamonaviy o'zbek she'riyatida poetik obraz va uning badiiy talqini (Azim Suyun ijodi misolida). Filolog. fan. f.b.falsafa doktori (PhD) dissertatsiyaci. – Toshkent: 2022. – 129 b.

Quvvatova D. X. XX asr ikkinchi yarmi o'zbek dostonchiligining taraqqiyot xususiyatlari. Filolog.fan.d. disser. – Toshkent, 2016. – 267 b.

Quronov D., Mamajonov Z. Sheraliev M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademya, 2013. – 412 b.

Norov O.Sh. Hozirgi zamon she'riyatida janriy rang-baranglik va etakchi tamoyillar. Filologiya fan. b. f. d. (PhD) disser. avtoref. – Qarshi, 2020. – 48 b.

Sabirdinov A. Oybek she'riyatida so'z va obraz. Toshkent: Akademya, 2010. – 96 b.

Teoriya literaturi. V 2 t. / Pod red. N. D. Tamarchenko. — T. 1: N.D. Tamarchenko, V.I. Tyupa, S.N. Broytman. Teoriya xudojestvennogo diskursa. Teoreticheskaya poetika. — M.: Izdatelskiy sentr «Akademiya», 2004. — 512 s.

Sher, Abdulla. Gul yillar, bulbul yillar. Kichik saylanma. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijod uyi, 2012. – 354 b.

Shukur, Eshqobil. Hamal ayvoni: She'rlar. – Toshkent: SHarq, 2002. – 320 b.